

**Tilavova M.D-UrDU katta o'qituvchisi**

**Erkinova Navbahor- UrDU talabasi**

## **ONA TILINI O'RGANISHDA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil ta'lim asosida o'qitish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье показаны методические рекомендации по обучению учащихся на основе самостоятельного обучения, обучению их самостоятельному и творческому мышлению в начальных классах на уроках родного языка и чтения.

**Abstract:** In this article, the guidelines for teaching students on the basis of independent learning, teaching them to think independently and creatively in primary grade mother tongue and reading classes are shown.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ish, bilim, ta'lim, usul, texnologiya, ijodiy ish

**Ключевые слова:** самостоятельная работа, знания, образование, метод, технология, творческая работа.

**Key words:** independent work, knowledge, education, method, technology, creative work

Bugungi kunda o'quvchilarning mustaqil ishlashga o'rgatish asosiy vazifalardan biri aylangan. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida mustaqil ta'lim asosida o'qitish, ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim o'quvchilarning ona tili ta'limidan o'qitish sohasidagi bilimlarini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili ta'limining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmlari va rahbarligi ostida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsda va darsdan tashqari mustaqil ish qilish uchun vazifalar beriladi. Bu esa o'z navbatida ona tili o'qitish ta'limida o'quv tarbiya jarayonining muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish bo'yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish ta'limning tarbiyaviy ta'moyilini kuchaytirish, qiziqishini oshirish, mustaqil va

Bunday ishlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib bevosita asosiy darslarning davomi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mustaqil ta'limda amalga oshirish qiyin bo'lgan vazifalarni hal qilishga keng yo'l ochildi. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil qiladi. Ona tili va o'qish darslarida mustaqil ta'limning turli xil usullaridan ya'ni ta'lim texnologiyalaridan foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi.

O'quvchilarda mustaqil ishlash avvalo, mustaqil ishlarga tayyorlash, o'qituvchi tomonidan materiallarning muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borgan ma'qul: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, ijodiy ishlarni bajarish kabi.

Quyida mustaqil ishlardan namunalar tavsiya qilamiz.

### 1. Amaliy topshiriqlar

#### 2-sinf uchun

1. Berilgan so'zlarga bitta tovushi bilan farqlanadigan so'zlar tanlang. So'z ma'nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.

*Dil-til, Choy-..., -..., -..., -..., -..., gul-..., paxta-..., tovoq-..., bola-..., bosh-..., sovun-..., tog'-..., yurak-..., terak-..., tovuq-..., tol-..., katta-... .*

2. Maqolni o'qing. Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarning tagiga chizing.

*1. Ola ekkan oz olar,*

*Raso ekkan soz olar.*

*2. Birni kessang, o'nni ek.*

*3. Yetti o'lchab, bir kes.*

4. Kechli bo'lay desang, do'st orttir.

5. Sanamay sakkiz dema.

3. Berilgan so'zlardan gap tuzing. Ajratib qo'yilgan so'zdan boshlab.

*Keldi, archa, qorbobo, bayramiga.*

*Bolalar, hamma, yig'ildi.*

*Chaqirdi, qorbobo, qorqizni.*

*Aytdi, qo'shiq, qorqiz.*

*Chapak, biz, chaldik.*

*Ulashdi, sovg'a, qorbobo, hammaga.*

4. O'ylang, yangi ism hosil qilish uchun qaysi harflarni qo'yish kerak?

|  |   |   |    |   |   |
|--|---|---|----|---|---|
|  | o | b | a  | r |   |
|  | m | i | d  | a |   |
|  | i | l | sh | o | d |

|   |   |   |    |   |   |  |
|---|---|---|----|---|---|--|
| a | z | i | z  |   |   |  |
| k | o | m | i  | L |   |  |
| d | i | l | sh | o | d |  |

2-sinf uchun

Gorizontal yo'nalish

|   |   |  |   |  |
|---|---|--|---|--|
|   | 3 |  | 4 |  |
| 1 |   |  |   |  |
|   |   |  |   |  |

1. O'zi yerda, boshi ko'kda. (*Tutun*)

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| 2 |  |  |  |  |
|   |  |  |  |  |

2. Yo'lbarsga o'xshab ketar,  
Sherday chozilib yotar.

U bor joyda hamisha,

Sichqonga qiron yetar. (*Mushuk*)

Vertikal yo'nalish

3. Oq samanim osmonda chopar

Yag'rinlari quyoshni yopar. (*Bulut*)

4. Qoziq ustida qor turmas. (*Tuxum*)

*Grammatik topshiriq:*

Topgan so'zlaringizni daftaringizga yozing. So'ngra ularni lug'atchadan tekshiring. Qaysi bo'g'inda imlo xatoga yo'l qo'ydingiz? Nima uchun? Bu so'zlar nimani bildiriyapti?

Dekak, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishda mustaqil ishlarning o'rni va roli katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Noshir" 2009-y.

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - Toshkent: Sharq, 1997. - 44 bet.